



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISH  
JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Sattorov Ashurqul Pattoyevich

Denov tumanidagi 93-umumiy

o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ashurqulsattorov1@gmail.com

Raxmatova Maloxat Izatulloyevna

Denov tumanidagi 93-umumiy o‘rta

ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

malokhat6970@gmail.com

Fattoyeva O‘g‘iloy Ashurqulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika

instituti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich

ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

fattoyeva@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish hamda, zamonaviy ta’lim usullaridan foydalanib dars jarayonlarini o‘tkazish va bunda zamonaviy metodlardan foydalanish haqida so‘z yuritilgan. Ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish davr talabi bo‘lishi bilan birga bu orqali dars sifatini oshirish va o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ham tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maqolada science



fanining joriy etilishi, metod tushunchasi ta'rifi, interfaol metodlar haqida ham tushunchalar berilgan. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan va eng ommalashgan metodlar orqali bolalarni tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish haqida ham fikr yuritilgan. T-chizma metodi orqali bolalarda olam bilimlarni toifaga ajratib tahlil qilish o'rgatilsa, FSMU texnologiyasi orqali o'rganilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Klaster metodi orqali esa, bolalar olgan bilinlarini tarmoqlash orqali mustahkamlab olishadi. Maqolada kommunikatsiya, kolloboratsiya, kritik fikrlash va kreativ fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalari haqida ham so'z yuritilgan. Maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar va ularni qo'llash borasida muhokama va natijalar ham keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** science, interfaol metodlar, T-chizma metodi, FSMU texnologiyasi, Klaster metodi, kommunikatsiya, kolloboratsiya, kritik fikrlash, kreativ fikrlash.

**Abstract.** This article talks about the effective organization of the process of teaching natural sciences in primary classes, the use of modern educational methods and the use of modern methods. The use of modern methods in the educational process is a demand of the times, and it serves to increase the quality of the lesson and increase the interest of students in the lesson. For this reason, it is appropriate to use modern methods in the process of teaching natural sciences. The article also provides insights into the introduction of science, the definition of the concept of method, and interactive methods. It was also thought about increasing children's interest in natural sciences through the most popular methods used in the educational process. If children are taught to analyze world knowledge by category using the T-chart method, the information learned is analyzed using FSMU technology and SWOT-analysis methods. Through the cluster method, children strengthen their knowledge by grouping. The article also talks about XXI st century skills such as communication, collaboration, critical thinking and creative thinking. The article also mentions the

discussion and results of the methods used in teaching natural sciences and their application.

**Key words:** science, interactive methods, T-chart method, FSMU technology,, Cluster method, communication, collaboration, critical thinking, creative thinking.

## KIRISH

Hozirgi kunda yurtimizda tabiiy fanlarni o‘qitishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli ham maktablarda tabiiy fanlar tizimiga juda katta o‘zgartirishlar kiritildi. Bularga darsliklarning o‘zgartirilishi, har bir o‘quvchi alohida mashq daftarlar bilan ta’minlanganligi va amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor qaratilayotganini misol qilib keltirishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagи 4805-son "Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq maktablarda tabiiy fanlarni joriy etish bo‘yicha o‘quv rejalar belgilandi.

Ushbu qonunga ko‘ra mamlakatimizda tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida tabiiy fanlar ya’ni science fanlari joriy etildi. Bundan qo‘llangan maqsad yoshlarni tabiiy fanlarga oid bilimlarini oshirish, mamlakatimizni xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishini ta’minlashdan iborat etib belgilangan. Mamlakatimiz xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishishi uchun avvalo bunga chuqur tayyorgarlik ko‘rishi zarur edi. Shu sababli ham tabiiy fanlarni o‘qitish xalqaro baholash dasturlariga suyangan holda olib borildi[1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Metod (yunonchadan olingan bo‘lib . ‘metodos’ – bilish yoki tadqiqot yo`li, nazariya, ta`limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o`zlashtirish, o`rganish, bilish uchun yo`l-yo`riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli[2].

Interfaol metod – ta’lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollilikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarni o’zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko’pligi, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega[3].

1.T-chizma metodi - bu metod orqali o‘quvchilar mavzu bo‘yicha o‘rgangan bilimlarining, ma’lumotlarning afzallikkari va kamchiliklarini mustahkamlab olishadi.

2.FSMU texnologiyasi- munozarali masallarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o’tkazishda qo’llaniladi, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishiga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring[4].

3.Klaster metodi- Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o’rtasidagi aloqalar to‘g‘risida

fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi[5].

## NATIJALAR

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida metodlardan foydalanish dars jarayonini sifatli tashkil etishga yordam beradi va o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

4-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan Tabiiy fanlar darsligidagi mavzularda berilgan ma’lumotlarni metodlar orqali mustahkamlab olamiz.

### Mavzu: Suvni qanday asrash kerak?[6]

**T-chizma metodi** orqali hozirgi kundagi suv manbalarining afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rib chiqamiz:

#### T-chizma metodi (1-chizma)

Afzalliklari	Kamchiliklari
Tirik organizmlarga hayot bag‘ishlaydi	Orol dengizi kabi suv havzalarining qurib qolishi
Aholi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi	Aholi orasida suvni ifloslantirish natijasida iste’molga varoqli suvlar miqdori kamayishi
Sanoatda chiqarishga katta qo’shami	tejamaslik natijasida suv miqdori kamayishi

**Fizik hodisalar**

**T-chizma metodi-** interfaol metodlarning o‘rganilganlarni fikrlashga yordam beruvchi metodlar sirasiga kiradi. Shu sababli ham ushbu metoddan o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

### Mavzu: Atmosfera[7].

**FSMU texnologiyasi** orqali Atmosfera tarkibi va havo tozaligining ahamiyatini izohlaymiz.

#### FSMU texnologiyasi (2-chizma)

F	<b>fikringizni bayon eting</b>	Biz sog‘lom hayot kechirishimiz uchun atmosferani ifloslantirmaslikka harakat qilishimiz zarur
S	<b>fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating</b>	Atmosferadagi asosiy modda - bu havo.
M	<b>ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring</b>	Havo bir necha gazlar aralashmasidan tashkil topgan. Uning asosiy qismini (butun atmosfera hajmining deyarli 4/5 qismini) azot gazi egallaydi. Ikkinchi o‘rinda nafas olishimiz uchun zarur bo‘lgan kislorod gazi turadi.
U	<b>fikringizni umumlashtiring</b>	Shu sababli ham biz atmosferani toza saqlashimiz zarur. Chunki biz atmosferaning asosiy qismi havodan nafas olamiz. Toza havo esa bizning organizmimizga katta ta’sir ko‘rsatadi.

### Mavzu: Fizik hodisalar[8].

**Klaster metodi** orqali fizik hodisalar turlarini tavsiflab chiqamiz.

#### Klaster metodi (3-chizma)

**Klaster metodi** - Interfaol metodlarning o‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari sirasiga kiradi. Shu sababli ham bu metoddan mavzuni tushuntirish jarayonida ko‘proq foydalaniladi.

## MUHOKAMA

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida amaliyotga ko‘proq e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Tabiiy fanlar deganda atrofimizni o‘rab turgan barcha jonli va jonsiz tabiatni tushunishimiz mumkin. Bunda har bir predmet haqidagi bilimlarni sezgi a’zolari orqali anglab idrok etsak manfaatli bo‘ladi. Ayniqsa endi kamolga yetayotgan, atrof-muhit haqida bilimlarga ega bo‘layotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun bu juda muhim hisoblanadi. Shu sababli ham o‘rganilgan bilimlarni yangicha interfaol metodlar va o‘yinlardan foydalanib mustahkamlab olsak ijobjiy natijalarga erisha olamiz. Bular orqali bolalarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishimiz mumkin. Kommunikativlik orqali bolalarda erkin muloqot madaniyati shakllanadi. Bolalar jamoa bo‘lib topshiriqlarni bajarganda kolloboratsiya, ya’ni jamoada ishslash qobiliyati rivojlanadi. Bolalar topshiriqlarga tanqidiy yondashishganda kritik fikrlash yuzaga keladi. Hozirda judayam katta e’tibor qaratiladigan ijodiy fikrlash jarayoni esa bolalarda kreativ ko‘nikmalarni hosil qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini samarali tashkil qilish hamda, zamonaviy ta’lim usullaridan foydalanib dars jarayonlarini o‘tkazish va bunda zamonaviy metodlardan foydalanish bolalarni qiziqishini oshirishga va dars jarayonini samarali tashkil qilishga sabab bo‘ladi. Shu sababli ham dars jarayonida yangicha, zamonaviy, interfaol metodlardan foydalanishga katta e’tibor qaratishimiz zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fattoyeva O‘. A. Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM yondashuvining afzalliklari. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy

pedagogik texnologiyalarning o‘rnini” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman.

“Surxon ilm nashri” nashriyoti. Denov-2024. 194-198-bet.

2. Xusanova D. Metod va metodika haqida ma’lumot. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». №7 (100), 1.02.2023. 336-bet.
3. <http://manzura90.zn.uz/interfaol-metodlar/>
4. Xudoynazarova G. Nurmurodova M. Xudoynazarova G. Kimyo fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalarining ahamiyati. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №6 Buxoro – 2021. B-190.
5. <http://zuxra-urganch.zn.uz/oqituvchilarga/interfaol-metodlar/>
6. S. V. Konsyanenko. Y. V. Malikova. Tabiiy fanlar 4-sinf II qism. Novda nashriyoti. Toshkent-2023. 30-33-betlar.
7. S. V. Konsyanenko. Y. V. Malikova. Tabiiy fanlar 4-sinf II qism. Novda nashriyoti. Toshkent-2023. 12-bet.
8. S. V. Konsyanenko. Y. V. Malikova. Tabiiy fanlar 4-sinf II qism. Novda nashriyoti. Toshkent-2023. 78-bet.

